

SOTSIAL TARAQQIYOTDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY- AXLOQIY QARASHLARI

O'zMU talabasi

Hayitboyeva Dilnoza Ne'mat qizi

hayitboyeva03@gmail.com

97-120-66-61

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8063153>

Annotatsiya: Maqolada Sharq mutafakkirlarining ta'lif-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari, islomda bolalar tarbiyasi to'g'risida so'z yuritilib, yurtimiz mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lif-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirish kelajak avlodni ham ma'nani ham jismonan yetuk shaxs bo'lib yetishida asosiy omillardan biri ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy qoida, tarbiya, odob, barkamol inson, insonparvarlik, ma'naviy fazilatlar. Jamiyat ijtimoiy, ma'naviy-ruhiy hayotida ma'naviy-axloqiy qarashlar o'ziga xos o'rinn tutadi. Avloddan avlodga o'tib kelgan tarixiy va madaniy qadriyatlarimiz, ota - bobolarimizning ma'naviy-axloqiy qarashlari jamiyatimiz taraqqiyotida o'ziga xos ma'naviy ozuqa vazifasini o'taydi. "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan oq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebah o'ziga va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi".

Jamiyatimizning har tomonlama taraqqiy etishida Abu Rayxon Beruniy, Al Xorazmiy, Yusuf Xos Xojib, Abu Nasr Abu Nasr Forobi, Maxmud Qashg'oriy, Xoja Axmad Yassaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom at Termizi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Abdulla Avloniy, Fitrat, singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlari, ma'naviy-axloqiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning qalbi va ongiga jo bo'lgan milliy ma'naviy-axloqiy negizlar uni butun umri davomida xalq xizmatida bo'lishga, Vatan ravnaqi hamda taraqqiyotiga xissa qo'shishga, o'zining ongli va erkin mushohada qiluvchi shaxs sifatida kamol topishiga muttasil ravishda undaydi. Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" asarida axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur", - deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga to'xtalib o'tadi. Allomaning nuqtai nazaricha, yaxshi xulqlar quyidagilardan iborat: matonat (aql), diyonat (e'tiqod), nazokat (poklik va tozalik), g'ayrat, riyozat (savob ishlar), qanoat, shifoat, ilm, sabr, hilm (yumshoq tabiat), intizom, nafs me'yori, vijdon, vatanni suymoq, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison (til va adabiyot), iqtisod, viqor (g'urur), muhabbat, avf (kechirimli bo'lish). Bu xislatlar ma'naviy-axloqlilikning asosiy sifatlari sanaladi. Ular asosida Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatga axloqiy munosabat, o'z atrofidagilarga axloqiy yondashuv, shuningdek, har bir o'quvchining o'zi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabatni qaror toptiriladi.

O'rta Osiyolik mutafakkirlarning ilmiy merosida, manbalarda o'zbeklarda qadrlangan, o'zbekona axloq, odobga oid ma'naviy fazilatlar haqida ko'plab qimmatli fikr, ma'lumotlar mavjuddir. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining «Boburnoma» asarida o'zbeklarga xos bo'lgan ko'plab ma'naviy-axloqiy sifatlarni tasvirlaydi. Bular iymon va e'tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, bolajonlik, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, farzandlarning ota-onalariga, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'lariga mehribonligi, diniy qadriyatlarga rioya

qilish, savodxonlik, sahovatlilik, xushfe'llik, shirinso'zlik, mardlik, odillik, hayolilik, sahiylik, odamiylik, oq ko'ngillilik, mehnatsevarlik va boshqalardir.

O'rta Osiyoga sayohatga kelgan German Vamberi «Buxoro yoxud Mavorounnahr tarixi» asarida Oltin O'rdadagi o'zbeklarning muslimoncha tarbiyalanganini, savdo-sotiqlida og'ir vazminligini, oq ko'ngillilik va samimiyligini, kamgapligrini, sadoqatliligin, dovyurakligini, shinavandligini, oilaviy munosabatlarda pokligini, mulohazaliligi, andisha bilan to'g'ri so'zlashishini, ota-onaga hurmati va e'tiqodi kuchliligin, birinchi bo'lib o'tirmaslik va birinchi bo'lib so'zlashmasligini, mug'ombirlikni bilmasligini, dinga e'tiqodi kuchli bo'lib, bu jihatdan anatoliyali turklarga o'xshashligini ko'rsatgan.

O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlar o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib ularga do'stlik, o'rtoqlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, fazilatlilik, saxiylik, xushmuomalalilik, jamoa ichida o'zini tuta bilishlik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe'llik, mardlik, samimiylik, lutfi karamllilik, ro'zg'orparvarlik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, oru-nomusllik, to'g'rilik, rejallilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-onsa va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g'urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy, ma'naviy – axloqiy fazilatlar kiradi.

Millat, xalq bor ekan uning ma'naviy dunyosida milliy jihatlar doim saqlanib qoladi. O'zbeklarning milliy ma'naviyati, erkak va ayollarning o'ziga axos sharqona axloqiy fazilatlari, ota-onsa, farzandlar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'y aloqalari, halollik, iymon, vijdon bilan bog'liq ma'naviyati faqat o'tmish sadosi emas, balki hozirgi kun uchun ham xosdir.

Xulosa qilib aytganimizda, ajdodlarimizning ma'naviy-tarbiyaviy xususidagi qarashlarini o'rganish, qo'llagan milliy tarbiya uslublarini tiklash, zamonaviylashtirib qo'llanilishi, komil inson fazilatlarining shakllantirishda juda katta ahamiyat kasb etadi va bunday komil insonlarni voyaga yetkazgan jamiyat hamisha taraqqiy etib boradi.

References:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997, 137-bet.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoshud axloq. – Toshkent, O'qituvchi, 1992.
3. I.Karimov. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. -T.: O'zbekiston, 1992 y. 23-bet.
4. Foydalanalgan adabiyotlar
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.: "Hilol-nashr". 2013 y.
6. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 6.
- M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.
7. M.Shoxadjaev. Burxoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.
8. M.Hamdamova. Ma'naviyat asoslari. T.: "Fan va texnologiya". 2008 y.
9. S.Dolimov, U.Dolimov. Kaykovus unsurulmaoniy qobusnomasi T.: "Istiqlol" 1994 y.
10. San'at - yoshlar nigohida. Magistrantlarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: 2019 y.
11. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 y.
12. Y.Abdullayev. Eski mакtabda xat-savodga o'rgatish. T.: 1960 y.

13. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 y.
14. Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. T.: 2016 y.
15. Z.B.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganishning didaktik metodlari. Zamonusiy ta'lif jurnali. 2017 yil, 5-son.
16. Hayitboyeva, D., & Shakhobiddinova, S. (2023). TOURISM ECONOMICS AND MANAGEMENT. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 279-283.
17. Hayitboyeva, D., & Shakhobiddinova, S. (2023). SPECIFIC FUNCTIONS OF THE MODERN TOURIST MARKET. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 275-278.
18. Jumanazarova Sh, Hayitboyeva. D. (2023). ZAMONAVIY DUNYODA FRANSUZ TILI.
19. Shaxobiddinova, S., & Hayitboyeva, D. (2022). FRENCH NATIONAL CULTURAL EXPRESSIONS. Science and Innovation, 1(2), 186-190.

